

IKAO Davlat komissiyasi

IKAO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yili 07-iyun 271-son Qarori bilan, "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi huzurida tuzilgan. 1998 yili 16-iyunda O'zbekiston Respublikasi parvozlari xavfsizligini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi (Davavianazorat) tuzilgandan keyin, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 14 avgust 349-son Qarori bilan IKAO ishlari bo'yicha O'zR Davlat komissiyasi Davavianazorat huzurida faoliyatini boshladi. Davlat komissiyasining raisi etib Davavianazorat boshlig'i tasdiqlandi.

Davlat komissiyasi respublikada havo mintaqasidan foydalanish va fuqaro aviatsiyasi Xalqaro tashkilotlari masalalari bo'yicha davlatning vakolatli organi hisoblanib, uning bajarilishi barcha vazirliklar, idoralar va kontsernlar tomonidan majburiydir.

Quyidagilar Davkomissiyasining bosh vazifasi hisoblanadi:

- xalqaro fuqaro aviatsiyasi doirasida uzoq muddatli siyosatni amalga oshirish va havo mintaqasi hamda kelgusida rejalashtirishni boshqarish;

- fuqaro aviatsiyasi xalqaro tashkilotlarining vakolatxonalari va IKAO faoliyatining barcha sohalarida O'zbekiston Respublikasi tomonlari manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash;

- xalqaro tajribalardan foydalanish va o'rganish, xalqaro hamjamiyatda respublikaning rolini oshirish;
- O'zbekiston Respublikasiga qo'shilgan, fuqaro aviatsiyasi doirasida 1944 yil Chikago konventsiyasi va fuqaro aviatsiyasi doirasidagi boshqa konventsiyalardan chiqqan, O'zbekiston Respublikasi vazifalarni bajarish va huquqlarni amalga oshirish bo'yicha tegishli vazirlik, idora va boshqa boshqaruv organlari tadbirlarini muvofiqlashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;

Davkomissiyaning bajaruvchi organi bo'lib ijrochi kotib va uning o'rinbosari boshqaradigan kotibiyat hisoblanadi. Davkomissiya kotibiyati tarkibiga axborotni ta'minlash bo'yicha mutaxassis kiradi.

Davkomissiyasi uning zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun:

- IKAO masalalari bo'yicha o'zaro harakat qiluvchi vazirlik va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish masalalarida Komissiya uchun takliflar ishlab chiqiladi va Komissiyaning topshirig'i bilan bunday faoliyatning zarur kelishuvlari amalga oshiriladi.

- IKAOning ishchi organlarida, boshqa xalqaro tashkilotlarda, shuningdek davlat organlarida va jamoat tashkilotlarida belgilangan tartibda subyekt sifatida chiqadi va yozishmalarni amalga oshiradi.

IKAO faoliyatini o'rganib chiqadi va tahlil qiladi.

- 1944 yil Chikago Konventsiyasidan kelib chiqib, vazifalari doirasida takliflar va tadbirlar tayorlash bo'yicha rahbarlikni amalga oshiradi.

- IKAO Assambleyasi Sessiyasi kun tartibidagi masalalarni davlat nuqtai nazarida ishlab chiqishni, kelishuvini va oldinga siljishini, shuningdek Assambleya qarorlarini amalga oshirilishini tashkillashtiradi.

- IKAO tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarda O'zbekiston Respublikasi delegatsiya vakillari (mutaxassislari) ishtiroki to'g'risida takliflarni belgilangan tartibda tayorlaydi va taqdim etadi, bunday delegatsiyalarning ushbu tadbirlarda tashabbusli takliflari va o'rnalarini ishlab chiqish tashkil qilinadi;

- IKAO xujjatlari, amaldagi Tavsiya va Standartlarini davlatimizda joriy etish bilan bog'liq, Komissiya qarorlarini bajarishni tashkil qiladi, shuningdek tegishli vazirlik va idoralar bilan IKAOning tegishli xujjatlarini amalda qo'llash va o'rganishda hamkorlik ko'rsatadi.

- IKAO tadbirlarida ishtirok etuvchi Respublikadagi fuqaro aviatsiyasi organlari, tegishli vazirlik va idoralar bilan delegatsiyalarning hisobotlarini taqdim etish;

- fuqaro aviatsiyasi doirasida xorij tajribalaridan foydalanish bo'yicha IKAO Kotibiyatining takliflarini Respublika vazirlik va idoralarga yo'naltirishni tashkillashtiradi.

- IKAO faoliyati bilan bog'liq, shuningdek respublikadagi aloqador bo'lgan tegishli vazirlik va idoralar IKAO rasmiy xujjatlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborot ma'lumotnoma materiallarini yetkazishni tashkil etadi.

- xujjatlarning ma'lumotnoma fondini tegishli tomonlar bilan tuzib chiqish va foydalanishni ta'minlaydi. IKAOning rasmiy xujjatlarida nazorat nushalarini olib boradi.

- IKAO Amaliy Tavsiya va Standartlarini ko'rib chiqish va tahlilni hamda bu masalada davlat tomonida turib, IKAOning ishchi organlariga o'z vaqtida yetkazilishini muvofiqlashtiradi.

- IKAO talablari bilan va respublikada amal qiluvchi, qoidalar o'rtasidagi farqlarning ro'yxatini belgilangan tartibda tayorlab IKAOga taqdim etishni ta'minlaydi.

- O'zR FA manfaatlaridan kelib chiqib IKAO tomonidan o'tkaziladigan seminarlarda, konferentsiyalarda, yig'ilishlarda, majlislarda va boshqa tadbirlarda qatnashadi.

- O'zbekiston Respublikasi xududida xorijiy davlatlar havo kemalari bilan bog'liq aviatsiya xodisalarini tekshirish natijalari bo'yicha, shuningdek fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga noqonuniy aralashuvi xujjatlari bo'yicha materiallar va hisobotlarni IKAOga tayorlash va taqdim etishda qatnashadi.

- O'zbekiston Respublikasi o'zining xududida fuqaro havo kemasida sodir bo'lgan aviatsiya xodisalari bo'yicha avvaldan va axborot hisobotlarini, shuningdek fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga noqonuniy aralashuvi xujjatlarini IKAOga taqdim etadi.

- idoralararo ishchi guruhining ishlarini muvofiqlashtiradi va ularga zarur yordamlarni ko'rsatadi. - radionavigatsiya tizimidan foydalanish va tuzish doirasida O'zbekiston Respublikasi korxonasi, tashkilot va idoralari xalqaro hamkorligini muvofiqlashtirish masalalari, radionavigatsiya masalalari bo'yicha Qo'mita ishlari, shuningdek navigatsiya axborotlarida fuqaro va harbiy talablarni ta'minlash hamda radionavigatsiya dalalarida yaxlitligini tuzish bo'yicha respublikadagi muvofiqlashtirish ishlarini tashkillashtiradi.

- radionavigatsiya masalalari bo'yicha xalqaro va milliy tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarda O'zbekiston Respublikasi vakillari (mutaxassislari) delegatsiyalarining ishtiroki to'g'risida takliflarni

belgilangan tartibda tayorlaydi va taqdim etadi.

-IKAO faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha Xalqaro Aviatsiya Qo'mitasi (XAQ) bilan o'zaro hamkorlikni amalga oshiradi.

-IKAO talablari va tavsiyalarini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar o'rtasida havo xabarlar doirasidagi idoralararo kelishuvlarni ishlab chiqishda ko'maklashadi.

-havo xabarlar doirasidagi O'zbekiston Respublikasi bilan boshqa davlatlar o'rtasida idoralararo va boshqa kelishuvlarni O'zR ekspluatantlari IKAO ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiradi.

-Chikago Konventsiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan, tashish to'g'risida IKAOga taqdim etish ko'zda tutilgan, xalqaro havo xabarlar bilan band, Kelishilgan davlatlar aviakorxonalar bo'yicha xarajatlar va moliyaviy ma'lumotlar statistikasi majburiyatlarini bajarish ta'minlanadi.

IKAO ishlari bo'yicha O'zR Davlatkomissiyasi tarkibi:

1. Tashqi aloqalar Vaziri o'rinbosari
2. Mudofaa Vaziri o'rinbosari
3. Ichki ishlar Vaziri o'rinbosari
4. Adliya Vaziri o'rinbosari
5. Moliya Vaziri o'rinbosari
6. Sog'liqni saqlash Vaziri o'rinbosari
7. Favqulodda vaziyatlar Vaziri o'rinbosari
8. Milliy xavfsizlik xizmatlari Raisi o'rinbosari
9. Davlat bojxona qo'mitasi Raisi o'rinbosari
10. O'zgidromet Bosh Direktori o'rinbosari
11. Milliy Aviakompaniya Bosh Direktori o'rinbosari
12. O'zaeronavigatsiya Markazi Direktori o'rinbosari
13. Axborot texnologiyalari Davlat Qo'mitasining Rais o'rinbosari